

MATEMATIKA FANINI MILLIY AN’ANALAR BILAN INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI

Sayfullayeva Madina Baxodir qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi (Boshlan’ich ta’lim)

yo’nalishi 2-kurs magistranti

E-mail:sayfullayevamadina21@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang’ich sinflarda milliy qadriyatlarga asoslangan holda matematika darslarini tashkil etish bo’yicha turli tavsiyalar, milliy qadriyatlar, milliylikimizni targ’ib etuvchi manbalar, jumladan: maqollar, topishmoqlarning dars jarayoniga tatbiqi haqida keng ko’lamli tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: milliy qadriyat, xalq og’zaki ijodi, maqol, topishmoq, fan-texnika, texnologiya, dunyoqarash, axborot-kommunikatsiya, integratsiya, zamonaviy, aqliy faoliyat, AKT vositalari, integratsion darslar.

Annotation. This article provides various recommendations for organizing mathematics lessons in primary schools based on national values, and extensive recommendations on the application of national values, sources that promote our nationality, including proverbs, riddles, and other resources, to the teaching process.

Key words: national value, folk oral culture, proverb, riddle, science and technology, technology, worldview, information and communication, integration, intellectual activity, integrated lessons

Аннотация. В данной статье представлены различные рекомендации по организации уроков математики в начальной школе на основе национальных ценностей, а также обширные рекомендации по применению национальных ценностей, источников, способствующих формированию национальной идентичности, включая пословицы, загадки и другие ресурсы, в учебном процессе.

Ключевые слова: национальная ценность, народная устная культура, пословица, загадка, наука и техника, технология, мировоззрение, информация и коммуникация, интеграция, интеллектуальная деятельность, интегрированные уроки

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo’shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al Farg’oniy, Abu Rayxon Beruniy va Mirzo Ulug’bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o’quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarini matematika go’zalliklaridan bahramand bo’lishlariga sharoit yaratib berish – barcha uchun ham qarz, ham farz

hisoblanadi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi kechayotgan voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega¹.

Jamiyatning axborot muhitining va mehnat bozoridagi holatning jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta’lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Bu esa matematikani o‘qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqilishini talab qilmoqda. Faqat bilim olishga yo‘naltirilgan ta’lim o‘tgan zamonda qolmoqda.

Matematikadan boshlang‘ich ta’lim — tarbiyaviy vazifalari nazariy bilimlar tizimini asosidagina hal etishi mumkin. Bu o‘zicha ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani va matematika fan xususiyatini o‘z ichiga oluvchi metodologik o‘qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) oldi. Biroq, birgina nazariy bilimlarning o‘zi har qanday boshqa faoliyatga tayyorlanishdagi kabi yetarli emas. O‘qitishning ma’lum mazmuni va o‘qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta’sirlanadigan u yoki bu o‘quv yo‘nalishi uchun eng yaroqli usullarini tiklash va qo‘llanishini bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o‘zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarurdir².

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lib, bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yoshlarimizni O‘zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o‘zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo e’tiborimiz markazida turishi lozim. Bugungi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta’lim tizimida yuqori sifatli texnologiyalarni joriy etib, ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etishdan iborat³.

Jadallashayotgan bugungi axborot davrida jumladan barcha sohalarda keng ko‘lamli yuksalishlar bo‘lmoqda. Shu bilan birga yoshlar ongiga kiruvchi salbiy va ijobiy g‘oyalar ham yo‘q emas. Bularga qarshi immunitet hosil qilish uchun milliylikka asoslangan darslarni tashkil etish bugungi kunning talabiga aylanib bormoqda. Milliylikni targ‘ib qilish uchun matematika darslari integratsiyalashgan darslarni tashkil etish kerak.

¹ H.M.Jumayeva – Termiz davlat universiteti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). “Matematika o‘qitish metodikasi” (Amaliy mashg‘ulotlar 1-modul). O‘quv qo‘llanma/ H.M.Jumayeva – Termiz.: “TerDU NMM” nashriyoti, 2023. -140 b.

² M.Jumayev: “Matematika o‘qitish metodikasi” Darslik / Toshkent: «Turon-Iqbol», 2016. -416 b.

³ Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida innovatsion texnologiyalar [Matn]: o‘quv qo‘llanma / S.Q. Qahhorov, U.H. Hayitov .-Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.-184 b

Aynan integratsion darslarda olam haqida uzuq-yuluq, parchalangan bilimlardan farqli o'laroq bilimlar bir butun, yaxlit tizimda beriladi. o'qituvchining oldida muhim vazifa turibdiki, uning o'quvchisi shiddatli zamonda olam haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi uchun, o'z yo'lini topishi uchun nimalarga tayanishi, nimalarni bilishi, qanday ko'nikma va malakalarni egallashi lozim, degan savolga javob qidirishi tabiiydir. Dunyoni bir butun ko'rish, yaxlit anglash muhim o'rin tutmoqda va bu yerda o'qituvchi bilimlarni bir-biriga bog'lab, tizim asosida bermog'ini taqozo etmoqda. Bu vazifani integratsion darslarda amalga oshirish mumkin. Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan bo'lib, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p. Integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik. “Integratsiya” so'zi lotincha integratio - tiklash, to'ldirish, “integer” — butun so'zidan kelib chiqqan⁴. Darslarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish aynan: maqol, topishmoq, milliy harakatli o'yin, tez aytish, milliy qo'shiqlar kabi manbalar darsga milliy ruh bag'ishlaydi. Og'zaki ijodimiz asarlari milliy qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining asosini tashkil etadi. Davlatimiz tomonidan milliy mafkuraga bo'lgan e'tiborning salmoqli qismi og'zaki ijodimizdagi san'at namunalari bilan bevosita aloqadadir. Chunki xalq og'zaki ijodi farzandlar qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, ezgulik, saxiylik, ilm-hunarga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishi bilan birga axloqiy jihatdan ham go'zal inson bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi⁵. Darslarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish va shular bilan birgalikda AKT vositalari bilan tashkil etilsa samaradorligi yaxshi bo'ladi. Hozirgi davrlarda zamonaviy darslarni tashkil etish uchun xuddi shunday ilovalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.M.Jumayeva – Termiz davlat universiteti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). “Matematika o'qitish metodikasi” (Amaliy mashg'ulotlar 1-modul). O'quv qo'llanma/ H.M.Jumayeva – Termiz.: “TerDU NMM” nashriyoti, 2023. 140 b.
2. M.Jumayev: “Matematika o'qitish metodikasi” Darslik / Toshkent: «Turon-Iqbol», 2016. -416 b.
3. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida innovatsion texnologiyalar [Matn]: o'quv qo'llanma / S.Q. Qahhorov, U.H. Hayitov .-Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona, 2022.-184 b

⁴ Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, iimovatsiya va integratsiyasi. o'quv qo'llanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. - 240 b.

⁵ Xalq og'zaki poetik ijodi: Akad.litseylar uchun darslik / Taqrizchilar H. Boltaboyev va bosh. — T.: «Sharq», 2010. — 208 b.

4. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. o‘quv qo‘llanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013. - 240 b.

5. Xalq og‘zaki poetik ijodi: Akad.litseylar uchun darslik / Taqrizchilar H. Boltaboyev va bosh. — T.: «Sharq», 2010. — 208 b.